



SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARINING G‘OYAVIY VA BADIY XUSUSIYATLARI

Normetov Bunyodbek Jasur o‘g‘li

Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti

Arxeologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Shukur Xolmirzayev hikoyalarining g‘oyaviy va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Adib ijodida inson va tabiat munosabatlari, milliy ruh, ma‘naviy qadriyatlar, hayot haqiqatining badiiy ifodasi kabi muhim masalalarning aks etishi yoritiladi. Hikoyalarda qahramonlar ruhiyati, ichki kechinmalari, insoniy fazilatlar hamda axloqiy muammolar realistik tasvir vositasida ochib berilgani ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, yozuvchining o‘ziga xos uslubi — sodda, lo‘nda va ta’sirchan til, milliy-mahalliy kolorit, tabiat manzaralarining jonli tasviri hamda psixologik tahlilning ustuvorligi ilmiy asosda tahlil etiladi. Maqolada Shukur Xolmirzayev hikoyalarining o‘zbek nasridagi o‘rni va ahamiyati ham baholanadi.

Kalit so‘zlar: “Omon ovchining o‘limi”, “Ot egasi”, “Jarga uchgan odam”, Surxon vohasi, Boysuntog‘ manzaralari,

Kirish:

Yozuvchi ijodida tasvir prinsiplari paydo bo‘lishi, shakllanishi hamda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi, avvalo, adabiyotga olib kirilgan hayot materialining mazmundorligi, rang-barangligi va takrorlanmasligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Badiiy asarning hayotiyliigi ham aynan shu omillar orqali ta‘minlanadi. Shu ma‘noda, o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Shukur Xolmirzayev ijodi alohida e‘tiborga loyiqdir. Adib adabiyotga Surxon vohasining



o'ziga xos koloritini — Boysun tog'lari manzaralarini, surxondaryoliklar turmush tarzini, urf-odatlarini, ruhiyatini hamda betakror so'zlash uslubini, ya'ni mahalliy dialektni olib kirgan ijodkor sifatida tanilgan. Bu xususiyat ayniqsa yozuvchining milliy-mahalliy ruh ustuvor bo'lgan hikoyalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining o'ziga xosligi va betakrorligi ham aynan shu milliy zamin, mahalliy ruh va tabiiylik bilan belgilanadi. Adib voqelikni sun'iy bo'yoqlarsiz, hayotning o'zidan olingan tabiiy ranglar bilan tasvirlaydi. Natijada uning asarlarida xalqona ohang, samimiyat va ruhiy chuqurlik ustunlik qiladi. Ayniqsa, yozuvchi hikoyachiligining shakllanish davri bo'lgan 1960-yillarda tabiat va inson munosabati markaziy mavzulardan biriga aylangan. Bu, shubhasiz, yozuvchining bolalik yillari tabiat qo'ynida o'tganligi bilan bog'liq bo'lib, tabiat uning dunyoqarashi va estetik qarashlarini shakllantirgan asosiy omillardan biri bo'lgan. Mazkur davrda yaratilgan hikoyalarda adib inson va hayvonot olami, inson va o'simliklar dunyosi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni, ularning bir-birisiz yashay olmasligini, o'zaro ta'sirini teran badiiy ifoda etadi. Tabiat yozuvchi talqinida nafaqat yashash muhiti, balki insonni tarbiyalovchi, uning ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi muhim kuch sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan Xolmirzayev ijodi ekologik va axloqiy g'oyalarni ham o'zida mujassam etadi. Bizningcha, yozuvchining tasvir prinsiplari shakllanishida uning tug'ilib o'sgan muhitining ta'siri nihoyatda katta bo'lib, aynan shu muhit adib badiiy olamining poydevorini tashkil etadi. Bundan tashqari, Shukur Xolmirzayev hikoyalarida oddiy inson taqdiri orqali butun bir xalqning ruhiy dunyosi, qadriyatlari va hayot falsafasi ifoda etiladi. Shu bois uning asarlari nafaqat badiiy jihatdan, balki ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati bilan ham alohidaqimmatga egadir.

Asosiy qism:

Shukur Xolmirzayev ijodining muayyan qismi tabiat va inson munosabatlarini badiiy jihatdan tadqiq etishga bag'ishlangan. Bu munosabatlar



haqida adibning o‘zi iqrор tarzida aytgan quyidagi so‘zlari ham bunga dalil bo‘la oladi: «Men Boysun rayonida tug‘ilganman. Boysun — tog‘lik joy. O‘n ikki yoshimda o‘zim yolg‘iz miltiq ko‘tarib ovga chiqib ketardim. So‘ngra, bu yerda yashirishning hojati yo‘q: qaysarroq edim... Lekin bitta narsani yaxshi ko‘rardim — masalaning mohiyatini tushunishni». Bu so‘zlardan anglashiladiki, 1970-yillarning boshlarida, ya‘ni ijodiy prinsiplari hali to‘la shakllanib ulgurmagan davrda yosh yozuvchi voqelikni badiiy idrok etish yo‘llarini izlay boshlagan. U inson hayotini, yashash tarzini hamda abadiy tiriklik manbaini tabiat bilan uyg‘unlikda, o‘zaro bog‘liqlikda va birlikda tasavvur qiladi. Adib bu xulosaga hozirgi Surxon vohasining olis ajdodlari — qadimgi baqtriyaliklar hayot tarzini kuzatish jarayonida keladi. Bu o‘lkaning qadimgi xalqlari dastlab tabiatga sig‘inganini, uni ulug‘ ne‘mat sifatida e‘zozlaganini anglaydi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida tasvirlangan obrazlarning ichki dunyosini chuqur anglashda psixologik tahlil usuli muhim ahamiyat kasb etadi. Qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari, hayotiy qarorlarni qabul qilish jarayoni asarlarning ma‘naviy ta‘sir kuchini yanada oshiradi. Bu jihatdan adibning “Omon ovchining o‘limi” hikoyasi alohida e‘tiborga loyiqdir. Hikoyada bosh qahramon Omonning shaxs sifatida shakllanishida bolalik davrining o‘rni muhim ekani ko‘rsatiladi. U otasi — hurmatli ovchi Rahmon polvon tomonidan o‘n uch yoshida “indamas” miltiq bilan ta‘minlanganidan so‘ng hayvonlarni o‘ldirishni odat qilib oladi. Omon o‘lja topa olmagan kunlari nihoyatda asabiylashib ketadi, hatto xotini ham uning ko‘ziga yomon ko‘rina boshlaydi. Matnda bu holat quyidagi tarzda ifodalanadi: “Mabodo ovdan qo‘li quruq qaytsa — bunday voqea juda kam bo‘lardi — u bamisoli otasi o‘lgandek aza tutar, qovog‘i ochilmas, shunda xotini ham ko‘ziga yomon ko‘rinib, bechora biron-bir yetishmovchilikdan zorlansa, u ‘jonga tegding-ku sen ham!’ deya miltig‘ini qo‘lga olardi”. Oddiygina ovdan quruq qaytish holatini otasining o‘limiga tenglashtirish qahramon ruhiyatining izdan chiqqanini ko‘rsatadi. Doimiy ravishda begunoh hayvon va qushlarni ovlash inson qalbini shafqatsizlikka o‘rgatadi, undagi mehr-oqibat tuyg‘ularini so‘ndiradi.



Natijada Omon asta-sekin jizzaki, bag‘ri tosh, rahm-shafqatsiz shaxsga aylanib boradi. Hikoyada qahramonning tabiatga bo‘lgan munosabati ham keskin o‘zgaradi. Avval tabiatni sevgan inson asta-sekin qalban sovib, befarq va shafqatsiz kimsaga aylanadi. U na odamlarga, na tabiatga mehr qo‘ya oladi, ma‘naviy jihatdan bo‘sh va qashshoq hayot kechiradi. Masalan, yagona oziq manbai bo‘lgan sigiriga ham shafqatsiz munosabatda bo‘lishi, kakliklar voqeasi hamda vahshiyona kiyik ovi tasvirlari uning ruhiy tubanlashuvini yaqqol ko‘rsatadi. Shu sababli yozuvchi uni “ikki oyoqli mahluq” sifatida ta‘riflaydi. Shukur Xolmirzayevning “Omon ovchining o‘limi” hikoyasi o‘zbek adabiyotidagi chuqur ma‘naviy-didaktik mazmunga ega asarlardan biridir. Asar o‘quvchini inson va tabiat munosabatlari, halollik va insofsizlik, vijdon va xudbinlik kabi dolzarb axloqiy muammolar haqida jiddiy o‘ylashga undaydi. Shu bois mazkur hikoya nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy ahamiyati bilan ham alohida qimmatga ega. Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi” hikoyasida inson, tabiat va hayvonot olami o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik chuqur badiiylik bilan tasvirlangan. Hikoya qahramoni Inod uchun ot shunchaki minish vositasi emas, balki oilasining bir a‘zosi kabi qadrli mavjudot sifatida namoyon bo‘ladi. Qorabayir ot otasidan meros qolgan bo‘lib, uning hayotini bir necha bor saqlab qolgan, oilasi boshiga tushgan fojialardan so‘ng ham Inod yonida qolgan yagona sodiq do‘stdir. Inson va hayvon o‘rtasidagi bunday ruhiy bog‘liqlik har kim tomonidan ham anglab yetilmaydi. Egamberdidek kishilar uchun ot oddiy hayvon, davlat uchun esa xo‘jalik resursi xolos. Ammo Inod uchun bu jonivor vafot etgan yaqinlaridan qolgan yodgorlik, yuragining bir bo‘lagi edi. Shu sababli u otni begonalar qo‘liga topshirishdan ko‘ra, uni o‘zi otib o‘ldirishni afzal ko‘radi. Bu fojeali qaror qahramonning ruhiy izzatini yanada chuqurlashtiradi va u o‘zining yana bir bebaho boyligidan ayriladi. Hikoyada tabiat inson ruhiyatini davolovchi, taskin beruvchi kuch sifatida ham talqin etiladi. Inod oilasi boshiga tushgan musibatlardan so‘ng qorabayir otga minib tog‘lar va adirlar bag‘rida kezadi, tabiat go‘zalligidan bahramand bo‘lib, ruhiy azoblardan bir oz yengillashadi. Bu holat



inson va tabiatning o‘zaro uyg‘unligi hamda insonning tabiatning ajralmas qismi ekanini yaqqol ko‘rsatadi. Shukur Xolmirzayevning “Jarga uchgan odam” hikoyasi ham inson va tabiatning chambarchas bog‘liqligini badiiy jihatdan yoritib beradi. Muallif tabiatni oddiy fon sifatida emas, balki voqealarda faol ishtirok etuvchi jonli obraz sifatida tasvirlaydi. Boysuntog‘ning osmoni, adirlari, archazorlari, hayvonot olami shu qadar hayotiy ifodalanganki, o‘quvchi ularni ko‘z oldiga keltirib, tabiat go‘zalligini his eta oladi. Masalan: “Tog‘ning osmonga qadalgan o‘rkachlarida parquv bulutlar suzib yurar, ular tog‘ bilan zangori osmonni bir-biriga qo‘shib turganga o‘xshar edi” .Asar qahramoni Islom obrazi orqali muallif insonning tabiat bilan ruhiy aloqasini, uning hayotiy izlanishlari va ichki kechinmalarini ochib beradi. Islom bolaligidan tog‘ va tabiatga mehr qo‘ygan, harbiy xizmatdan so‘ng esa o‘z yurti va tog‘larini sog‘inib yashaydi. Keyinchalik gazetada ishlashi orqali tabiatga bo‘lgan muhabbatini so‘z vositasida ifoda etadi. “Islom qishlog‘iga keldi, uyiga kirdi, tog‘lariga sayrga ham chiqdi. Ana shunda u endi bu yurtdan bir umr judolikda yashay olmasligini, jasaki ham, albatta, shu yerda dafn etilishi kerakligini chuqur his qildi” . Bu jumlada qahramonning ona yurtga bo‘lgan sadoqati va qalb iztiroblari nihoyatda ta’sirchan ifodalangan. Biroq asarda tabiatga befarq yoki shafqatsiz munosabatda bo‘ladigan obrazlar ham mavjud. Masalan, Ismoil Yusupovich uchun ayiq shunchaki ayolini xursand qilish vositasi bo‘lsa, Islom uchun u tabiatning noyob mo‘jizasi, ayiq bolalari uchun esa ona, himoyachi va boquvchi edi. Ismoilning ayiqni otib o‘ldirishi Islom uchun og‘ir ruhiy zarba bo‘ladi. Natijada u qasos olish maqsadida Ismoilni jarga uloqtiradi. Hikoya aynan shu fojeali nuqtada yakun topadi va insonning tabiat qonunlarini buzishi qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishini ko‘rsatadi. Umuman olganda, Shukur Xolmirzayev uslubi sodda, ta’sirchan va chuqur falsafiy mazmunga ega. Uning ijodida realistlik tasvir ustun bo‘lib, inson ruhiyati va ichki kechinmalari tabiiy hamda ishonarli tarzda ochib beriladi. Muallif ortiqcha bezaklardan qochib, aniq va hayotiy ifodalar orqali katta ma’nolarni yetkazishga intiladi. Xolmirzayev uslubining muhim jihatlaridan



biri tasviriy qudratdir: u tabiat manzaralarini realistik va hayajonli tarzda ifodalab, qahramonlarning ruhiy holatini yoritadi. Dialoglar kam, ammo lo'nda va mazmunli, ichki monologlar esa obrazlarning ichki olamini ochishga xizmat qiladi. Yozuvchi hayotiy voqealarni sodda, ammo ta'sirchan til orqali tasvirlab, insoniy qadriyatlarni ilgari suradi. Uning asarlarida fikr siqiq, lekin teran ifodalanadi va o'quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi. Shu bois Shukur Xolmirzayev ijodi nafaqat badiiy mahorati, balki inson, tabiat va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishi bilan ham o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi.

Xulosa:

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida xalqning o'tmishi, buguni va ertasi tasvirlanadi. Uning obrazlari orqali o'quvchi o'zini, jamiyatni, hayotni anglaydi. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida bu hikoyalar muhim manbadir. Hikoyalardagi didaktiklik bevosita emas, balki badiiy hayotiylik orqali berilishi ularni chuqur ma'naviylik bilan boyitadi. Shukur Xolmirzayev "Adabiyotga Surxon koloritini hamda o'zi tug'ilib o'sgan Boysun tog'larining manzaralarini, surxondaryoliklar hayotini, udumlarini, betakror so'zlash tarzini, dialektini olib kirdi". Demak, Shukur Xolmirzayev ijodi o'zbek adabiyotining ma'naviy-tarbiyaviy maktabidir. Shukur Xolmirzayev XX asr o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan taniqli yozuvchidir. U o'zining yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan betakror nasri bilan o'zbek xalqi ma'naviyatining yuksalishida o'ziga xos o'ringa ega. Sh.Xolmirzayev J.London, E.Xeminguey, S.Tompson kabi jahonning mashhur yozuvchilari qatorida tabiat mavzusida takrorlanmas asarlar yaratdiki, bu yozuvchi ijodining alohida bo'rtib ko'rinib turuvchi bir qirrasidir. Shukur Xolmirzayevning hikoyachilikdagi badiiy mahorati uning tabiat va inson munosabatlari aks etgan hikoyalari mahorat bilan yoritilganki, avvalgilarini takrorlamaydi, hech bir yozuvchi ijodiga o'xshamaydi. Yozuvchi ijodida tasvir prinsiplarining paydo bo'lishi, shakllanishi, o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi, avvalo, adabiyotga olib kirilgan hayot materialining mazmundorligi, rang-barangligi, takrorlanmasligi bilan bog'liqdir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adabiyot 8: darslik / S.Olimov, S.Ahmedov va boshq, – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 352 b.
2. Tavaldiyeva Gulbahor. — Sh. Xolmirzayev hikoyalarida voqelikni badiiy idrok etish prinsiplari .FF nomzodlik dissertatsiyasi, 2010-yil
3. Xolmirzayev.Sh. Olis yulduzlar ostida,–T.: Cho‘lpon, 1971-yil, 15-bet
4. Xolmirzayev.Sh. Komil inson orzusi yoxud adabiyotning ibrat yaratish masuliyati, .–T.: O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2001-yil, 169 bet.
5. Sh. Xolmirzayev. Saylanma. 3-jild. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.
6. Shukurova “Shukur Xolmirzayev hikoyalarida xarakterlar talqini”